

ÒQITUVCHI FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI PSIXOLOGIYASI

*Abdusamatova Aziza Doniyor qizi**Shahrisabz Davlat Instituti talabasi**Eshmuratova Dildora**Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi.*

Annotatsiya: Òqituvchi faoliyatida muloqot madaniyatini tashkil etishning roli va umuminsoniy qadriyatlardan foydalanishning ustuvorligi.

Kalit sòzlar: pedagogik muloqot , òqituvchining muomila odobi, sharqona umuminsoniy qadriyatlari, psixologlar fikrlari.

“Muloqot” atamasining falsafiy, ijtimoiy, psixologik va pedagogik mohiyati, muloqot birligi. Òqituvchining ish faoliyati davomida òquvchilar bilan bilan muomila munosabati katta òrin egallaydi. Bu jarayonda bola insoniyat tòplagan bilimlarni, muomala qilish tajribalarini egallab oladi. Òqituvchi esa pedagogik jarayonda asosiy shaxs bòlib xizmat qiladi, unga yosh avlodni òqitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan. Shuning uchun ham òqituvchiga bolaning muomilasiga , axloqiga, xulqiga nisbatan alohida katta talablar qøyilgan. Òqituvchi hayotga endigina qadam qøyayotgan bolalar bilan doimo muloqotda bòlishadi. Bolalar òqitish va tarbiyalash jarayonida umuminsoniy va milliy urf-odat mezonlarini òzlashtiradi. Òquvchi muomila odobini, muloqot olib borish yòlini asosan òqituvchi timsolida anglab oladilar. Muallim bola uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bòlib qoladi. Afsuski, hamma muallimlar ham bolalar nazarida shunday bòlib qolmaydi .

Pedagogik muloqot va uning ahamiyati. Ibtidoiy tuzumdan boshlab, kishilar ma'lum ijtimoiy munosabatlar asosida bir-birlari bilan aloqa qila boshlaganlar. Muloqot inson faoliyatida eng muhim soha hisoblangan. Boshqacha qilib aytganda , muloqot inson faoliyatining ruhiy hamda ma'naviy asosi natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy ehtiyojlar bilan birgalikda namoyon bòladi. ¹"Shaxslar faoliyatining motivatsiyasining asosi sifatida yuzaga chiqayotgan ehtiyojiy manfaat , manfaatdorlik kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ma'lum ma'noda ularni maqsadli òy-fikrlari , istaklarini yuzaga chiqishga ham sabab bòladi. Shaxslararo munosabatlarni , muloqot madaniyatini qay darajada shakllanishiga ham sezirarli ta'sir òtkazadi. Binobarin, muloqot odamlar orasida amalga oshiriladigan faoliyatlar ichida yetakchi òrin egallab , u insondagi eng muhim ehtiyojlarni jamiyatda yashash va òzini shaxs deb hisoblash bilan bogliq ehtiyojni qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir" ¹ **V.M.KARIMOVA . Ijtimoiy psixologiya asoslari. Toshkent 1994- yil , 35-bet .**

Har bir shaxsning jamiyatda ado etadigan faoliyatlarì òzaro munosabat va ta'sir shakllarini òz ichiga oladi. Chunki har qanday ish avvalo odamlarning bir-birlari bilan til topishishni , bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni òzatishni, fikr almashuvi kabi murakkab hamkorlikni talab etadi. Shuning uchun har bir shaxs jamiyatda tutgan òrni , ishlarining muvaffaqiyati, obròsi uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bogliqdir. Bir qarashda osonga ðxshagan shaxslararo muloqot jarayoni aslida juda murakkab bòlib, unga odam hayoti davomida òrganib boradi. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida taniqli **Psixolog B.F. Pargin shunday yozadi:**

- a). individlarning òzaro ta'sir jarayoni;
- b). individlar òrtasidagi axborot almashinuv jarayoni;
- v). bir shaxsning boshqa shaxsga munosabat jarayoni;
- g). bir kishing boshqa kishilarga ta'sir kòrsatish jarayoni;
- d). bir-biriga hamkorlik bildirish imkoniyatlari ;
- ye). Shaxsning bir-birini tushunish jarayoni.

Muloqot òz xususiyatlariga kòra shakl va kòrinishlarga ega bòladi. Muloqot inson amaliy moddiy-ma'naviy shakllarni hamda uning ehtiyojlarini òzida aks ettiradi. ("Xalq ta'limi" jurnali , 2003 yil , 3-son, 48-bet)

Öqituvchi faoliyatida sharqona umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish .

Muallimlik kasbi shunday sharaqli , ishonchli va olivanob kasblardan bòlganligi uchun ham Milliy dasturdan, ta'lim tögrisidagi Qonundan kelib chiqadigan vazifalarni mакtab òquvchilari , òquv yurtlarining pedagog xodimlari, professor òqituvchilari bajaradilar. Shuning uchun ham " Qonun" da pedagog xodimlar òzlarining kasb-kori sha'ni va qadr-qimmatlari himoya qilishlari ;odob-axloq qoidalariga rioya etishlari , bola, òquvchi , talaba , òqituvchi -- òquvchi shaxsining qadr-qimmatlatini hurmatlashlari;ularni mehnatga, qonunlarga , ota-onalar va xotin-qizlarga, ma'naviy-tarixiy , madaniy-milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashlari , òzlarining butun faoliyatları va shaxsiy namunalari bilan umuminsoniy axloq qoidalariga , haqiqat, adolat , vatanparvarlik, yaxshilik va boshqa xayrli xislatlarga nisbatan qaror toptirish ;ösib-ulgayib kelayotgan avlodni bir-birini tushunish , xalqlar òrtasida tinchlik ,ahil-inoqlik ruhida tarbiyalashlari lozim.

Öqituvchining muloqot madaniyati nafaqat shaxslararo munosabatlarda , balki shu bilan birga ishlab chiqarish, mehnat jamoasi, ota-onalar bilan , jamiyat hayotiga ham kerakligini hisobga oladigan bòlsak , bugungi kunda òquvchi , talabalar fe'l-atvorini òrganish , ularning bir-birlariga mehr-muruvvatli bòlishga òrgatish , diniy aqidaparastlik tomir otayotgan hozirgi davr uchun jamiyatni insonparvarlashtirish eng muhim, eng dolzarb vazifa bòlib kelmoqda. Umuman olganda, muloqot madaniyatini takomillashtirish umuminsoniy ehtiyoj sifatida òz ahamiyatini yòqotmagan. Özbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimovning deyarli barcha

asarlarida , sözlagan nutqlarida òzbek xalqining kòp asrlik ma'naviy-milliy, madaniy qadriyatlarini, uning odob-axloqni belgilovchi Kur'oni Karim , Xadisi Shariflar, Imom al Buxoriy , Imom at -Termiziy , Najmuddin Kubro, Ahmad Yassaviy , Sufi Olloyor ,Sulaymon Bakirgoniy kabi mutaffakirlarning bebaho merosini, Al Xorazmiy , Abu Nasr Forobi , Al Beruniy , Abu Ali Ibn Sino , Mahmud Koshgariy , Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Mirzo Uluğbek Bobur Mirzo, Kamoliddin Behzod kabi allomalarning jahon fani madaniyatiga qoshgan ulug va bebaho hissalarini òrganish , shu asosda yosh avlodni tarbiyalash zarurligi ta'kidlanadi.

Islom ta'limoti òtmishda barcha ilohiy bilimlarning insoniy tajriba va fazilatlarni umuminsoniy qadriyat sifatida e'tiborga tushishimiz mumkin. Islom ta'limotida yoshlar barkamol inson bòlib yetishishlari , ayol va erkak turmushda , jamiyatda òz mavqelarini, vazifalarini bilib, pokiza hayot kechirishlari lozimligi ta'kidlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A. Istiqlol va ma'naviyat . Toshkent , "Özbekiston" ,1994 .
2. Karimov I.A .Barkamol avlod Özbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent , 1997
3. Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent " Özbekiston", 1998 yil
4. 4 . Azizzxòjayeva N.N.Pedagogik texnologiya va pedagogik . Toshlent 2003 yil.